

TERMITLARNING RESPUBLIKAMIZDA UCHRAYDIGAN TURLARI VA TARQALISHI

Artikov Orifjon Obidovich

katta o'qituvchi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada termitlar turkumini tarqalishi hamda turar joylarga, mebel, libos va oyoq kiyimlarga yaroqsiz holga kelishi, turli yovvoyi o'simliklarga, daraxt va ekinlarning qurishi, sug'orish kanallariga, jiddiy zarar keltiradi. O'zbekiston hududida uchraydigan turlari haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Termit, zararkunanda, respublika, yog'och, tarqalishi.

KIRISH: Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bu zararkunanda yiliga dunyo bo'ylab 40 mlrd dollar zarar keltirmoqda. O'zbekistonda ham termitlar bilan zararlangan aholi turar-joylari, tarixiy-madaniy obidalar, ijtimoiy soha obyektlari soni ortib bormoqda. Termitlar arilar, chumolilar singari jamoaviy ko'rinishda yashaydigan hasharotlar toifasiga kiradi. Ularda ham shoh, malika, ozuqa tashuvchi ishchilar bo'ladi. Qisqasi, termitlarning yashashi, uyasi o'ziga xos va mukammal tuzilgan. Shu bois ham ularga qarshi kurashish murakkab jarayon hisoblanadi.

O'zbekistonda termitlar zararlantirgan aholi uylari yildan-yilga ko'payib bormoqda. Yer yuzida termitlarning uch mingga yaqin turi aniqlangan. Ulardan 120 turi kuchli zararkunanda sifatida qayd etilgan bo'lib, Markaziy Osiyoda to'rtta turi uchraydi. O'zbekiston hududida Anacanthotermes avlodiga mansub 2 ta tur: turkiston va katta kaspiy orti (*A. turkestanicus* Jacobs., *A. ahngerianus* Jacobs.) termitlari tarqalgan bo'lib, ayniqsa keyingi 20-30 yil davomida Respublikamizning dayarli barcha viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi xonadonlari, qishloq hujaligi binolari va hatto tarixiy obidalarga ham ular katta zarar yetkazmoqda.

Anacanthotermes avlodiga mansub termitlarning uyalari yer ostida berkitilgan bo'lib, murakkab sistemali, gorizontal va vertikal kesishgan tirqish, kamera va yo'laklardan iborat

bo'radi. Ular bino devorlari, tomlarida ham kameralar hosil qilib imoratning qishda issiq va yozda salqin joylariga yig'iladi.

Termitlar uchish oldidan uya tepasidan chiqish teshikchalarini ochib, undan qanotli zotlar chiqadi. Yerga qo'ngandan so'ng qanotlarini sindiradi va juft-juft (erkak, urg'ochi) termitlar 3-5 sm chuqurlikda uya kamerasini qura boshlaydi. Termitlar uchib chiqish vaqtida shamol oqimiga duch kelsa, ular uzoq masofalarga tarqalishi mumkin. Aholi yashaydigan punktlarda termitlar turar joy va binolarga joylashib, ularning yog'och qismlarini kemiradi. Bundan tashqari, ular qog'oz, kitoblar, kiyimlar va h.k. bilan ham oziqlanadi. Termitlar odatda yer betiga chiqmaydilar va hech qachon ochiq joyda oziqlanmaydilar.



1-rasm Termitlar yog'ochdagi zarari

Xulosa. Respublikamizda aholi turar – joylari va inshootlarning termitlar zararidan katta talofat ko'rayotganligini bir qator sabablar-ga bog'liq deb qarash mumkin, jumladan: inson faoliyati tufayli yangi yerlarning o'zlashtirilishi, eski qabrstonlar buzilib, ularning o'rniga qurilish ishlari amalga oshirilganligi natijasida termitlar yashaydigan tabiiy

manbalarning buzilishi eski yog'och matreallarini qurilishlarda ishlatmagan ma'qul.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Яхонтов В.В. Экология насекомых. – Москва: Высшая школа, 1969. – 487
2. Sh.T. Xo'jayev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari.Toshkent. – 2019.
3. Sulaymonov B.A., Anorbayev A.R. va b. "Umumiy entomologiya va zoologiya". Toshkent -2019, 424 bet
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/07/29/termite/>